

2018 yilning yanvar-avgust oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **5660,6** mlrd.so'mni, o'sish **7,8 %**ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati – **103,5%** ni tashkil etdi.
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi -**16,3%** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'iycha 2018 yilning yanvar-avgust oylarida respublika korxonalaridan 5660,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi oshishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 6,2% ga, tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 21,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditssiyalashning 10,9 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 74,2 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 215,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'ycha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan -33.4 % ga, gaz kondensati – 20,8 % ga, tabiiy gaz – 14,6 % ga, qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid (osh tuzidan tashqari)-42,7 % oshganligini kuzatish mumkin.

Yanvar - avgust oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Ohoktosh, t	117557,0	88135,9	133,4
Gaz kondensati, ming t.	125,0	103,5	120,8
Tabiiy gaz, mln.kub.m	4251,1	3710,8	114,6
Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid(osh tuzidan tashari)	94039,0	65904,0	142,7

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5033,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 88,9 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan kislorod ishlab chiqarish 63,3 %, tozalangan guruch – 2,3 martaga, aroq -8,1% ga, paxtadan iyigirilgan ip –6,7% ga, polietilen – 3,4% ga, polipropilen -9,0% ga oshganligini va paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan), yumshoq bug'doy uni, karbonat dinatriya ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

***Yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik
sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Paxta tolasi, t	34986,0	37232,0	94,0
O'simlik yog'i (tozalangan), t	8036,9	9179,7	87,6
Tozalangan guruch, t	3454,6	1487,4	232,3
Yumshoq bug'doy uni, t	49814,4	50751,7	98,2
Aroq, m.l. 100% spirt	2644,8	2445,5	108,1
Bug'doy noni, t	1709,8	2293,4	74,6
Makaron mahsuloti, t	2004,0	2846,1	70,4
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, t	27618,0	26016,7	106,2
Tsement.beton yoki suniy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va binolar va inshootlar uchun boshqa buyimlar,t	300,0	297,9	100,7
Yul qoplamalari uchun asfaltli aralashmalar, t	19740,0	37000,0	53,4
Paxtadan iygirilgan ip, t	2696,3	2526,3	106,7
Kislorod, ming.m3	6,5	4,0	163,3
Karbonat dinatriya, ming.t.	120,5	111,3	108,3
Polietilen, t.	259701,3	251256,5	103,4
Polipropilen, t.	67856,0	62266,6	109,0

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 326,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida issiqlik energiyasini ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1 % kamayishi, va elektr energiyani ishlab chiqarish 2,5 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5% ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metall bo'lgan ikkilamchi xom ashyo 2marta, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 21,9 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 55,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 877,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 3,5 % ga o'sishi ta'minlandi, jami sanoatdagi ulushi esa 15,5% ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish



2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 33,5 % dan 2018 yilning yanvar-avgust oylarida 35,5% ga o'sishi kuzatilmoqda.


Yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Nukus shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 71,3% dan ulushini), Taxiato'sh (5,1%), Xo'jayli (3,3%), Mo'ynoq (3,1%), Amudaryo (3,0%), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar-avgust oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Shu bilan birga eng kam ulush Taxtako'pir (0,3 %), Shumanay (0,3 %), Nukus (0,4 %), Qorao'zak (0,9 %) va Chimboy (1,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Mo'ynoq (2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 125,9 % ga), Amudaryo (118,3 % ga), Qonliko'l (113,7 % ga) Qorao'zak (109,4 % ga) va Xo'jayli (107,3 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida respublikalar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

Gulmurzaeva T.

Aloqa telefoni:

(0371) 230-82-09